

Sa'diy Sheraziyning "Guliston" Asarida Ta'lim - Tarbiya Masalalari Masmuni

Yo'ldosheva Gulhayo Qahramon Qizi

Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti Pedagogika Fakulteti
Pedagogika Yo'naliishi 8-P-22 Guruh 2-Bosqich Talabasi

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich

Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Instituti

Pedagogika Va Psixologiya Kafedrasi

O'qituvchi U.Shomurotov@Dtpi.Uz

+998915107420

Anotatsiya Ushbu maqolada Sharq allomalaring buyuk vakili Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheraziy asarlarida ta'lim va tarbiyaning keng yoritilganligi va bu axloqiy qarashlarning bugungi kundagi o'rni haqida so'z yuritilgan.


Kalit s'oz Alloma, sharq , pedagogik qarash, Sa'diy, mutaffakir, nizomiya.

Anotation: In this article, the great representative of the scholars of the East, Abu Abdullah Mushrifiddin ibn Muslihiddin Saadi Shirazi, is widely covered in the works of education and upbringing, and the role of these moral views is discussed today.

Key words: Alloma, Sharq, pedagogic view, Sa'di, thinker, regulation


Kirish Biz o'zbek adabiyoti tarixini, adabiyotini o'rganar ekanmiz, boy madaniyadabiy an'analarga ega bo'lgan xalqimizning Sharqdagi ko'pgina qo'shni-qardosh xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lib kelganliklarini ko'ramiz. Turli etnik qatlamlarga mansubliklaridan qat'iy nazar o'zbek, tojik, ozarbayjon va Sharqdagi qator boshqa xalqlar asrlar davomida deyarli bir-xil siyosiy- ijtimoiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo'rlikka qarshi birgalashib bosh ko'targanlar. Bu xalqlar o'rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar shu zaminda paydo bo'lgan va rivojlangan. Sharq xalqlari o'rtalaridagi munosabatlar qardoshlik, vafodorlik asoslariga qurilgan bo'lib, bu xalqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, o'rtada jonli mushtarak bir madaniyat yaratishga yordam berib keldi. Xonlar, beklar o'rtasida butun o'rta asr davomida hukmron bo'lib kelgan qonli urushlar, nifoqlar xalqning ma'naviy jipsligiga rahna sololmadi. O'zbek adabiyotining Sharqdagi ko'pgina adabiyotlar bilan yaqinligi o'zaro munosabatlar tarixida hamisha muhim jarayon sifatida ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism Bu buyuk allomaning to'liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheraziy bo'lib, Sharq va G'arbda Shayx Sa'diy degan nom bilan ulug'lanadi. Donishmand shoir Muslihiddin Sa'diy ijodining dovrug'i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy, Hindiston va Misrdan Shimoliy Afrikagacha yoyilgani bois unga "Shayx" ya'ni, ustoz nomi berilgandir. Olim va tarjimon Sh.Shomuhamedovning ta'kidlashicha, [mutafakkirning nomi](#), tug'ilgan yili, taxallusi turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Xususan, ayrim manbalarda allomaning nomi Mushrifiddin ibn Muslihiddin Abdulloh, boshqa manbalarda esa Muslihiddin Sa'diy Sheraziy deya keltirilgan. Alloma tavallud topgan yil ham turlicha ko'rsatiladi. Chunonchi, mazkur sana ba'zi manbalarda hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) hamda milodiy 1204 yil tarzida qayd etiladi. Adibning o'ziga "Sa'diy" taxallusini tanlashiga ham tadqiqotchilar turlicha yondoshadilar. Ana shunday yondoshuvlarning birida mutafakkir mazkur taxallusni forslar orasida mashhur bo'lgan hamda Otabek hokimlari sulolasini boshlab bergan Sa'd binni Zangi nomi asosida tanlaganligi qayd etilsa, yana bir boshqa o'rinda esa ushbu sulolaning vakili hisoblangan Sa'd II, ya'ni, Sa'd ibn Abubakr nomiga nisbat berish tarzida qabul qilganligi e'tirof etiladi. Muslihiddin Sa'diyning umumiy yoshi xususida ham turlicha fikrlar mavjud, ayrim tadqiqotchilar allomaning 102 yoshga kirib vafot etganligiga urg'u bersalar, boshqa bir tadqiqot natijasi adibning 120 yil umr kechirganligidan dalolat beradi. Aksariyat manbalarda mutafakkirning vafoti yili hijriy 691 (milodiy 1291-1292) yil deb belgilangan.



Muslihiddin Sa'diy ko'hna Eronning qadimiy shahri sanalgan Sherozda tug'iladi. Uning otasi Sheroz hokimi Otabek Sa'diyning mulozimlaridan biri bo'lgan. Yosh Muslihiddin otasidan erta ajraladi. Shu bois unga saroy nafaqasi belgilanadi. Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni Sheroz shahrida oladi, so'ngra Bag'dod shahriga borib, u yerda mashhur "Nizomiya" madrasasida tahsilni davom ettiradi. U madrasada ta'lim olish chog'ida arab va fors tillari grammatikasi hamda adabiyotlari asoslarini chuqur o'zlashtiradi. Sharq falsafasi asoslarini katta qiziqish bilan o'rghanadi. Madrasada tahsil muddatini tamomlagach, Sharqning eng mashhur, shu bilan birga ilm-fan va madaniyat o'choqlariga aylangan shaharlar bo'ylab sayohatga chiqadi. Mutafakkirning komil insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi "Guliston" asari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlari tarixida o'ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingen. Ushbu asar muallifning boy hayotiy tajribasi asosida yaratilganligi bilan ham qimmatlidir. Taniqli sharqshunos olim Sh.Shomuhamedovning ta'kidlashicha, "Guliston" asari XVII asrdayoq frantsuz, nemis va lotin tillarga tarjima etilgan va G'arb mamlakatlarida katta shuhrat qozongan. Asar sakkiz bobdan iborat bo'lib, ularning har birida axloqiy tarbiyaning u yoki bu jihatlari borasida so'z yuritiladi. Asarning tarkibiy tuzilmasidan o'rinn olgan boblar quyidagicha nomlangan: «Podshohlar odati bayoni» (I-bob), "Darveshlar axloqi bayoni" (II-bob), "g'anoatning fazilati bayoni" (III-bob), "Sukut saqlashning foydalarini bayoni" (IV-bob), "Zaiflik va keksalik bayoni" (V-bob), "Ishq va yoshlik bayoni" (VI-bob), "Suhbat qoidalari bayoni" (VIII-bob). "Guliston"ning mundarijasidan ham anglanadiki, asar mazmun va mohiyatiga ko'ra insonni yetuklik, kamolotga yetaklovchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritishga xizmat qiladi. Asarda Abu Nasr Forobi, Yusuf Xos Hojib hamda Nizom ul-Mulk kabi mutafakkirlarning asarlarida bayon etilgani kabi insonning baxtli, saodatli bo'lishini ta'minlay oluvchi jamiyat, fozil, odil va adolatli hukmdor hamda uning fazilatlari, saroy a'yonlari va ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, davlatni adolatli boshqarish shartlari, shuningdek, mavjud jamiyatda ustuvor o'ringa ega bo'lgan axloqiy me'yorlar xususida so'z yuritiladi. Mutafakkirning nuqtai nazariga ko'ra, tabiatan olib qaraganda hukmdor ham oddiy inson sanaladi, u ham shaxsiy manfaatlari yo'lida harakat qilish huquqiga ega, biroq zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifaga ko'ra u el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'yishi shart. Hukmdor, eng avvalo, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida sabot bilan kurashar ekan jamiyat taraqqiy etadi. Muslihiddin Sa'diy podshohlarning yuksak insoniy sifatlarga ega bo'lishlarini orzu qiladi. Elu yurt hukmdori sifatida e'tirof etilgan inson quyidagi fazilatlarni o'z qiyofasida namoyon eta olishi maqsadga muvofiqidir: adolatli, tadbirli, g'ayratli, shijoatli, fahm-farosatli, bilimdon, dono, ziyrak, oliyjanob, saxovatli, jasur, mard hamda fuqarolariga nisbatan g'amxo'r bo'la, shuningdek, do'st bilan dushmanning farqiga bora olish. Muayyan mamlakat fuqarolariga yetakchilik, boshchilik qilayotgan podshohlarning yuqorida qayd etilgan fazilatlar egasi bo'lishlari hayotiy zaruriyatligini muallif ibratli hikoyatlar misolida ochib beradi.


Ta'lim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradigan shuningdek, ma'lum bilimlar, ko'nikmalar, qadriyatlar, tajriba va kompetentsiya yig'indisi bo'lgan intellektual, ma'naviy-ma'rifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni – shaxsning ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari mahsulidir. Tarbiya bugungi hayotimizdagagi muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Qadim tariximiz namoyondalari ham bu haqda o'z mustaqil fikrlarini bildirib kelmoqdalar. Masalan, alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Kamoliddan Husayn Voiz Koshifiy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rinn tutadi. Bola to'g'ri so'zli, va'daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerakligini aytadi. Bu ta'limiy asarda yozuvchi o'z davrida eng muhum va katta-katta siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy normalarni talqin etar ekan, o'sha davr kishilarining xilmoxil obrazlarini yaratdiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, ta'sir doirasida ham shoirning o'z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Uning ilg'or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang. Shuning uchun ham bu asarlar jahon adabiyoti durdonalari qatoridan joy



olgan. Sa'diy o'z zamonining yetuk pegagogi, dono, insondo'st, murabbiy shoiri, chuqur psixolog olimi bo'lgan. Bu ulug' donishmandning keng va rango- rang ijodida biz yorqin misralar bilan bir qatorda u yashagan davrning qora tamg'asi tushgan dog'larni ham ko'razmiz . "Guliston"— fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U "pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan. Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlalar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoyiba, lutfu nuktadonligi ham, his-tuyg'ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli tab'li odamlar —"Guliston"dan bahra ola biladilar " (N.Komilov). Bir olim shahzodaga ta'lim berar, lekin uni kaltaklab, qattiq azoblardi. Bir vaqt shahzoda toqat qila olmay shikoyat qilgani otasi huzuriga bordi va ko'ylagini ko'tarib, majruh badanini ko'rsatdi. Otasining yuragi achidi, muallimni chaqirib unga dedi: "Mening o'g'limga bergen bu aziyatining biror fuqaro farzandiga ravo ko'rmaysan, buning sababi nima?" Muallim dedi: "Buning sababi shuki, andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida barchaga barobar, xususan, podshohlarga aloqadordir, chunki ularning qilgan ishlari va gapirgan gaplari tillarda doston bo'lib ketadi, lekin avomning gapirgan gap-u xatti-harakati bunday ahamiyatga molik emas. Darvesh agar yuz noma'qul ish qilsa, Biriga ham do'stlar qilmas e'tibor. Ammo podshoh biror hazil so'z desa, Iqlimdan iqlimga o'tadi takror. Shuning uchun shahzodalarning ustozlari podshoh farzandlarining axloqini tarbiyalashda yanada ziyodroq sa'yi harakat ko'rsatmoqlari vojibdir". Kimga yoshligidan berilmas odob, Ulg'aygach bo'ladi baxtsiz, dili g'ash. Ho'l novda egilar qay xilda egsang, Quruqni to'g'rilar faqat o't-otash. Ustodning tutgan tadbiri va oqilona javoblari podshohga ma'qul tushdi. Podshoh unga libos va boshqa in'omlar berdi hamda martabasini oshirdi. Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan, Barcha toshda oltin bo'lmos'i gumon. Suhayl nur sochadi har yoqqa birdan, Bir yerda charm-u, bir yerda saxtiyon Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diy o'zining — "Guliston" asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o'rganishning o'ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o'rganishning o'ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so'z yuritadi.

Xulosa Yurt obodligi, mamlakatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik kishilarning azaliy orzusi bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikning rivojida ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar muhim omil sanalgan. Xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir.

Fors-tojik adabiyoti klassiklari Rudakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy kabi ijodkorlar dunyo miqyosida tanilib, boshqa xalqlar adabiyotiga ham katta ta'sir o'tkazgan. Nemis shoiri Gyote Sa'diyini "juda mahsuldor va fayzli, hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir", - deb hisoblagan. Fransuz yozuvchisi Volter "Guliston"dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlaridan foydalangan. Sa'diy she'rlari nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan. Muslihiddin Sa'diy o'zining "Guliston" asarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy kamolotga erishishning inson hayotidagi ahamiyati, ilm o'rganishning o'ziga xos afzalliklari, muayyan kasb yoki hunar o'rganishning o'ziga jihatlari, shuningdek, insonda axloqiy sifatlarni tarbiyalash masalalari xususida so'z yuritadi. Alloma ilm o'rganish jarayonida munozara uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Muslihiddin Sa'diyning nuqtai nazariga ko'ra, bahs-munozara oydin bo'limgan fikrlarni oydinlashtirish, aniq bo'limgan dalillarni asoslash, shuningdek, haqiqatni to'laqonli anglashga yordam beradi. Bahs-munozarani tashkil etish ma'lum qoidalarga asoslanishi zarur. Chunonchi, o'zgalarning fikrini diqqat bilan tinglay olish, o'z fikrini ilgari surishda ishonchli dalillardan foydalanish, asosli bo'limgan dalillarni keltirish orqali vaqtini behudaga sarf etmaslik, nodon bilan bahslashmaslik. Allomaning fikricha, quyidagi fazilatlarni o'z qiyofasida mujassam eta olgan insongina haqiqiy ma'noda komil, yetuk inson sanaladi: bilimli, mehnatsevar, kamtar,



oliyjanob, himatli, saxovatli, saxiy, shijoatli, g'ayratli, hat'iyatli, mard, jasur, jismonan kuchli, to'g'riso'z, bergan va'dasiga vafodor,adolatli, do'stga sodiq, o'z kuchi va mehnatiga tayanib ish ko'rvuchi va hokazolar. Mutafakkir tomonidan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlab yaratilgan asarlar hamda ularning mazmunida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga munosib o'ringa egadir. Shu asarlar buniyodkori ming-minglab qalam sohiblariga ijod sirlaridan saboq aytadi, ustozlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Sa'diy Sherazi. Guliston. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. - 247 b.
- 2 Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O'zbekiston, 1971. - 310 b.
3. Hayitmetova A. "Bo'ston" va o'zbek adabiyoti // Shayx Sa'diy va o'zbek adabiyoti. - Tehron-Toshkent, 2004. 42-b.